

PEDAGOGIK FAOLIYATDA DARSNI TASHKIL QILISH

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi **Abdullayeva Bahora O'tkir qizi**
Ilmiy rahbar **Zubaydova Nilufar Ne'matullayevna***

Annonatsiya

Ushbu tezisda ta'lim jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi darsni qanday tashkillashtirsa, natijaviyligi yuqori bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o'quvchilar bilan ishlashdagi muhim ko'rsatmalar berilgan.

This thesis provides information about how the teacher organizes the lesson in the organization of the educational process. Important instructions for working with students are also given.

В данной статье представлена информация о том, как учитель организует урок в организации учебного процесса. Также даны важные указания по работе со студентами.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, ta'lim, pedagogik faoliyat.

“Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtiromlar ko'rsatishimiz kerak”, - deydi muhtaram prezidentimiz. Barchamizga ma'lumki, biz hozirda kundankunga rivojlanib borayotgan davrda yashamoqdamiz. Bu albatta nafaqat bizga, balki endi o'sib kelayotgan yoshlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shunday ekan kelajak avlodga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishimiz shubhasizdir. Shu o'rinda hozirgi zamon o'qituvchilariga bo'lgan talab yanada kuchayishi ayni muddao.

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatni tashkil qilishda o'qituvchilarda bir talay qiyinchiliklar yuzaga keladi, chunki o'quvchilarning rivojlanishi yoshiga nisbatan ilgarilab bormoqda. Atrofimiz yangi ma'lumotlar, axborotlar bilan to'la, bu esa albatta insonlarga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shunday ekan, endilikda shu zamon o'quvchilariga qiziqarli va foydali bo'lgan bilimlarni berish uchun yangicha usullardan foydalanish zarurati tug'iladi. Ta'lim muassasalarida aksariyat o'qituvchilar hali ham oldingi vaqtlarda keng qo'llanilgan metodlardan foydalanadi. To'g'ri bu metodlar sifatsiz, natijasi yo'q demoqchimasman. Ammo, hozirgi zamon o'quvchilariga bu ko'rinishdagi darslar judayam zerikarli tuyuladi. Sababi, ular ommaviy axborot vositalaridan ya'ni, televizor, har xil ijtimoiy tarmoqlar, qolaversa, internet saytlari orqali yer yuzida bo'layotgan yangiliklardan boxabar bo'lib turibdilar. Bu esa ularning fikrlashiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Endilikda, pedagogik faoliyatni tashkil etishda yangi

interfaol metodlardan foydalanilsa, qolaversa, darslarni yanada qiziqarliroq olib borish uchun darsga aloqador har xil videoroliklar qo'yib berilsa, o'quvchilarga uyda bajarish uchun mustaqil topshiriqlar berilsa, o'quvchilar ham o'z ustida ishlashni, ham internet tarmoqlaridan to'g'ri foydalanishni o'rganadilar. Ta'kidlash joizki, hozirda har bir maktab o'quvchisining qo'lida uyali aloqa telefonlari mavjudligi hech birimizga sir emas. Dars jarayonini ko'tarinki ruhda o'tkazish, undan tashqari iloji boricha har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanish, o'zlashtirishda orqada qolayotgan o'quvchilarga bee'tiborlik qilmaslik, har bir o'qituvchining vazifasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Normal rivojlanib kelayotgan bolada ham o'zlashtirishda oqsashlar, ortda qolishlar kuzatilishi tabiiy. Chunki, bu bolaning yoshi va individual psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon. O'qituvchi qaysi o'quvchiga ko'proq e'tibor qaratsa, o'sha o'quvchida o'ziga nisbatan ishonch kuchayadi, o'ziga bo'lgan bahosi ko'tarilishi bilan bir qatorda bolada tirishqoqlik kuchayib boradi. Chunki, bola o'qituvchining ishonchini yo'qotishdan qattiq qo'rqadi. O'qituvchilardan esa o'quvchilar bilan ishlashda har bir o'quvchiga iloji boricha e'tibor berish talab qilinadi. Ta'lim tizimida ham har xil yangicha metodlardan foydalanish tavsiya qilinmoqda. O'qituvchilardan katta kuch talab qilinadi. Shu o'rinda aytish lozimki, o'quvchining kim bo'lib yetishishini o'qituvchining ozgina qilgan xatosi hal qilishi ham mumkin. Maktabda o'quvchilar ta'lim bilan birgalikda tarbiya ham oladilar. Darsning qiziqari bo'lishi uchun darsni musobaqa ko'rinishida o'tkazish yoki guruhlarga bo'lib mavzuni taqsimlab , qisqa vaqtdan keyin barchadan fikrlarini so'rab olish ham yaxshi samara beradi. Bu bilan o'quvchining nutqi rivojlanadi, tez fikrlashga harakat qiladi. Keyin dars oxirida albatta, ularni rag'batlantirish zarur. O'qituvchi va o'quvchi orasida hech qachon konflikt bo'lmasligi kerak. Agarda konflikt yuzaga kelsa, o'quvchi o'qituvchiga jahl qilib shu fandan ko'ngli sovib ketish holatlari kuzatilishi mumkin. Zero, hozirda bolalarni bilimli, ishbilarmon qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

Shunday qilib, pedagogik faoliyatni to'g'ri va unumli qilib tashkillashtirish uchun o'qituvchilar butun kuchini, aql-zakovatini safarbar qilishi lozim. Darslarni qiziqarli, bir-biriga o'xshamagan tarzda tashkil qilishi, shuningdek, ijodkorlik qobiliyatidan foydalanishi, har bir darsni xuddi yozuvchi yangi asar yozgandagidek, takrorlanmas qilib tashkillashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Toshkent 2017.
2. Hasanboeva. O. Xoliqov. D va boshqalar "Oila pedagogikasi". Toshkent 2007
3. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent-2008.